

**O'QUVCHILARDA INTERFAOL METODLAR ASOSIDA ERKIN FIKRLASHNI  
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI**

**Gulchexra Salavatovna Meliboyeva**

Qo'qon DPI, Kimyo kafedrasi v.b. dotsenti

**Ilyosbek Turgunov**

QDPI qoshidagi Institut School Academy maktabi kimyo fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarda interfaol usullar asosida erkin fikrlashni shakllantirish yo'llari va ularning samaradorligi haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol metodlar, Nafis arra, Blitz-o'yin, Yelpig'ich metodlari

Mustaqil va erkin fikrlaydigan erkin shaxsnинг shakllanish mustaqil O'zbekistonning kelajagi, uning demokratik jamiyat sifatida taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli hozirgi kunda o'qituvchi-tarbiyachilar oldida mas'uliyatli vazifalar turibdi.

O'qitishning eng samarali yo'li - mashg'ulotlarda o'quvchilarning haqiqatni bilishga, fikrlashga, erkin muloqotga, hamkorlikka intilishidir. Darslarda bu ruh bo'lmasa, bunday mashg'ulotlar jonsiz, zerikarli va samarasiz bo'ladi.

Ayni paytda o'qituvchi oldida mas'uliyatli va mashaqqatli vazifa – o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish hamda ijodiy fikrlashni shakllantirish turibdi.

Ta'limgarayonida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta'limgarayonini sifat jihatidan takomillashtirishni talab qilmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash uchun o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish muhim ahamiyatga ega va rivojlangan mamlakatlar tajribasida isbotlangan.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faoliyklarini oshiruvchi, ta'limgarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfol metodlar tashkil etmoqda.

Interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'limgarayonining o'quv-bilish faoliyagini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarni dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish,

bildirilgan mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga, rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lif va tarbiya jarayonida o'qituvchilar tomonidan o'rinni, maqsadli, samarali qo'llanilishi ta'lif oluvchida muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, fikrlarni tahlil qilish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Hozirgi kunda kimyoni o'qitishda ham interfaol metodlardan keng foydalanish yaxshi samaralar bermoqda. Bunday metodlarga "BBB", "Venn diagrammasi", "Kontseptual jadval", "Toifalash jadvali", "Assesment", "Baliq skeleti", "Charxpalak" va boshqa metodlarni kiritish mumkin. Bu metodlar yordamida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, axborotlarni tanqidiy qabul qilish, jamoada ishlash, o'z mavqeini mustahkamlash, fikrlarini himoya qilish, haq-huquqlarini anglab yetish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladilar. O'qituvchi esa didaktik jarayonni tashkillashda bu metodlardan oqilona foydalanmog'i, ularni mavzu bo'yicha o'quv elementlarining murakkabligi va vaqt tig'izligiga qarab qo'llamog'i lozim.

Quyida o'quvchilarda erkin fikrlashni rivojlantirishga yordam beruvchi interfaol metodlar va ularning kimyo faniga tadbig'i xususida to'xtalib o'tamiz.

### **Nafis arra texnologiyasi**

Ushbu uslubda darsda o'rganiladigan mavzu nomi yozuv taxtasiga yoziladi va qanday savollarga javob topilishi lozim ekanligi tushuntiriladi. Guruh o'quvchilari 5-6 kichik guruhlarga(boshlag'ich guruh) bo'linadi va har bir guruh o'rganiladigan material bo'yicha alohida ma'lum mavzularni oladi. Har bir guruh o'rganiladigan mavzu bo'yicha oldindan tayyorlangan kerakli materiallar papkasi bilan ta'minlanadi. Boshlang'ich guruhlar 10-12 daqiqa davomida taqdim qilingan materialni o'rganadi va muhokama qiladi.

Natijada o'qituvchi o'ziga berilgan mavzuni yaxshi biladigan 5-6 guruh ekspertlariga ega bo'ladi. Keyingi bosqichda har bir guruhdagi ishtirokchiga ma'lum tartib raqami beriladi va tartib raqamlari bir xil bo'lgan o'quvchilardan yangi(ekspertlar) guruhlari tuziladi. Mavzu muhokamasining 15-20 daqiqasi davomida yangi ekspertlar guruhini har bir a'zosi oldingi guruhga berilgan mavzu mazmunini tushuntirib beradi.

Natijada umumiy mavzuni yaxlitligi bo'yicha o'zlashtirish ta'minlanadi. Ekspertlar guruhining har bir a'zosi olingan axborotni ma'lum bir vaziyatda qo'llay olishini ta'minlash uchun mavzu bo'yicha biror muammoli vaziyat guruhlarga beriladi va har bir guruh ushbu muammoni to'g'ri yechimini topishi lozim.

Muammo har bir ekspert guruhida muhokamadan o'tkazilgach guruhlarning sardorlari muammo bilan guruhnini tanishtiradi va uning yechimini ko'rsatib beradi. Mashg'ulot so'ngida o'quvchilar bilimini tekshirib ko'rish va baholash uchun o'rganilgan material bo'yicha ekspress test o'tkaziladi. Nafis arra usuli yordamida o'quvchilar o'rganiladigan material bo'yicha ma'lum bilimga mustaqil ega bo'lishi, jamoa bilan ishlash malakasini olishi, axborot bilan almashish hamda jamoa bo'lib qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Materialga doir muammoli vaziyatni berish

Muammoli vaziyatni muhokama etish va to'g'ri yechimini topish

Ekspress test nazorati

O'rganiladigan material

O'quvchilar 5-6 guruhga bo'linadi

Boshlag'ich guruh:

Har bir guruhga o'rganiladigan material bo'yicha mavzu beriladi

Mavzuni o'rganish va muhokama qilish

Yangi ekspertlar guruhini tuzish

Berilgan mavzu mazmunini o'rganish

### **Blits - o'yin texnologiyasi**

Blits – o'yin texnologiyasi o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan fani asosida ko'p, xilmal-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharoit yaratib beradi. Blits-o'yin texnologiyasi o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, o'zgalar bilan hamfikr bo'la olishga yordam beradi.

Namuna. To`yingan uglevodorodlar (alkanlar) ning gomologik qatori

To`yingan uglevodorodlar	To`yingan uglevodorodlarning nomlanishi	Xato	baho	To'g'ri javob
C <sub>5</sub> H <sub>12</sub>	Metan			
C <sub>8</sub> H <sub>18</sub>	Geksan			
C <sub>3</sub> H <sub>8</sub>	Nonan			
C <sub>9</sub> H <sub>20</sub>	Pentan			
C <sub>6</sub> H <sub>14</sub>	Propan			
C <sub>2</sub> H <sub>6</sub>	Butan			

C <sub>10</sub> H <sub>22</sub>	Geptan			
C <sub>4</sub> H <sub>10</sub>	Etan			
C <sub>7</sub> H <sub>16</sub>	Oktan			
CH <sub>4</sub>	Dekan			

### **Yelpig'ich texnologiyasi**

Yelpig'ich texnologiyasi murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammoli turidagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Bu interaktiv texnoloiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Yelpig'ich texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

Misol tariqasida maktabda anorganik kimyo kursida Kalsiy va magniy mavzusini mustahkamlash uchun Yelpigich texnologiyasidan quyidagicha foydalanish mumkin.

**Guruhlarga topshiriq.** Kalsiy va magniying inson organizmiga foydali va zararli tomonlarini aytin.

<b>Kalsiy va magniying biologik ahamiyati</b>			
<b>Magniy</b>		<b>Kalsiy</b>	
<b>Foydali</b>	<b>Zararli</b>	<b>Foydali</b>	<b>Zararli</b>
<b>Xulosa</b>			

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'qitish jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish o'quvchilarga sifatli bilim berish va erkin fikrlashni rivojlantirish bilan birga, ularda o'zgalar fikrini hurmat qilish, xushmuomalalik, o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirish, o'z faoliyati natijalariga mas'ullik kabi qator tarbiyaviy sifatlarni ham shakllantirish imkonini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. Т. Истебод, 2008

2. Meliboyeva, G. S. "Kimyonи o'qitishda zamonaviy texnologiyalar." *Toshkent-2020* (2020).
3. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z., Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. T.: 2013.
4. Meliboyeva, G., and D. Murodxonova. "Maktabda "Marganes" mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkillash metodikasi." *Science and innovation* 1.B8 (2022): 1027-1031.
5. Meliboyeva, Gulchexra Salavatovna. "Umumta'lim muassasalarida zamonaviy kimyo darslarini tashkillashga oid metodik tavsiyalar." *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali* 2.16 (2023): 137-141.
6. Мелибоева, Г. С. "ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ "ЩЕЛОЧНЫЕ МЕТАЛЛЫ".." Экономика и социум 12 (115)-1 (2023): 1243-1247.
7. Salavatovna, Meliboyeva Gulchexra, and O. B. Jo'rayeva. "Interactive Methods and Their Possibilities in the Educational Process." *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science* 1.5 (2022): 24-28
8. Meliboyeva, Gulchexra Salavatovna. "INTERACTIVE METHODS ARE AN IMPORTANT FACTOR IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF CHEMISTRY EDUCATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.12 (2023): 452-457.
9. Minovarovna, Kazimova Nafisaxon, et al. "Dependence On The Professional Competence Of The Organizers Of Educational Processes." *Journal of Positive School Psychology* (2023): 1219-1223.
10. Meliboyeva, G. S., & Mamajonov, M. (2023). USE OF INTERACTIVE METHODS IN CHEMISTRY EDUCATION SYSTEM. *Open Access Repository*, 9(2), 34-38.